

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Arxivshunoslik kafedrası

Mavlonov Adham

IBTIDOIY JAMIYAT TARIXI

(REFERAT)

NAMANGAN-2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
IJTIMOIY-IQTISODIYOT FAKULTETI  
TARIX YO'NALISHI  
1-BOSQICH, 101-GURUH TALABASI  
TURDIMIRZAYEV MIRJALOLNING  
IBTIDOIY JAMIYAT TARIXI FANIDAN  
TAYYORLAGAN

# **R E F E R A T I**

**MAVZU: ANTROPOGENEZ**

**NAMANGAN - 2016**

## **MAVZU: ANTROPOGENEZ**

### **REJA:**

Kirish.

1. Antropogenez jarayonini vujudga kelishi uchun shart-sharoitning yuza kelishi.
2. Antropogenez jarayonida inson miyasining rivojlanishi.
3. Antropogenezni yakunlari va natija.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

## **Kirish.**

Bu mavzuimiz orqali eng qadimgi odamlar jismoniy va aqliy jihatdan qanday qilib bugungi ko'rinishga kelganliklariga bir nazar tashlaymiz. Antropogenez jarayoni sodir bo'lishiga nima sabab bo'ldi, antropogenez jarayoni o'zi nima, qanday hodisalar bu jarayon sodir bo'lishiga sabab bo'ldi, nima sababdan antropogenez jarayoni o'rta paleolitda juda tez yuz berdi va so'ngi paleolitda nihoyasiga yetdi va boshqa savollarga atroflicha javob beramiz. Bunda, albatta, bizga foydalanish uchun kerakli adabiyotlar, mavzuga oid o'z qarashlarimizdan keng foydalangan holda bu mavzuni yoritishga harakat qilamiz.

Yer yuzining turli mintaqalariga tarqalib ketgan insonlar rivojlanishi bir xil darajada bo'lmadi. Ular turmush-tarzida turlicha kun kechirar edilar. Masalan Shimoliy hududlarda yashayotgan insonlar Janubiy hududlarga nisbatan sovuq sharoitda yashar edilar. Bu esa ular xo'jaligidagi xilma hillikni vujudga keltirgan. Inson nima ishlarni muntazam qilishi ular tana tuzulishiga, tashqi ko'rinishiga va ular ongining qay darajada rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Mana shu jarayonlar insonlarda antropogenez jarayoni yuz berishiga sabab bo'ldi.

Dunyoning katta hududiga tarqalgan poleantropalar ya'ni neandertallar shu hilma xil tabiiy sharoit va ijtimoiy mehnat jarayoni natijasida asta-sekinlik bilan rivojlanishda davom etdi. Natijada hozirgi jismoniy tipdagi "Yangi odam" neantrop darajasiga yetib kelgunicha kata tarixiy davrni bosib o'tdi. Neantropalar o'zlarining jismoniy va aqliy qobiliyatlaribilan eng qadimgi odamlardan sifat jihatdan tubdan farq qilar edilar. Shuning uchun ham uni "Aql-idrokli odam" homo sapiens deb ataganlar. Ular o'zlarining tasgqi qiyofasi jihatidan hozirgi odamlarga juda o'xshab ketganlar. Mutaxassislarning fikricha neantropalar bundan 10-35 ming yil muqaddam so'ngi tosh asrining oxirlarida paydo bo'lgan va qadimgi dunyo bo'ylab keng tarqalib ketgan. Ularning skeletlari va boshqa suyak qoldiqlari, moddiy ma'daniy qoldiqlari Afrika, Yevropa va Osiyoning ko'pgina hududlaridan topilgan.

Aql-idrokli odamlar dastlab O'rta yer dengizi, Qora va Kaspiy dengizi atroflarida paydo bo'lgan va boshqa hududlarga tarqalgan degan fikrlar mavjud. Mazkur joylardan neantropalar qoldirgan juda ko'p manzilgohlar, manzilgohlardan esa ular qoldirgan moddiy-madaniy qoldiqlar va o'sha madaniyatni yaratgan kishilarning suyak qoldiqlari butun-butun skeletlari topilgan. Fransiyada Kromani, Komb-Kanell, Orinyak Italiyaning "Dololar g'ori", Grimaldi, Buyuk Britaniyadan esa Bauso de Torre g'orlaridan topilgan topilmalar buning isbotidir. Bu manzilgohlardan topilgan odamlarning suyaklarini o'rgangan olimlar shunday xulosaga keldilarki, bu odamlarda antropogenez jarayoni ancha tezlashgani aniqlangan. Chunki bu suyak qoldiqlarini yoshiga nisbatan keyinroq yashagan odam suyagi tuzulishi oldingilardan farqi sezilarli o'zgarib borganini ko'rsatib turibti. Odamlarda antropogenez jarayoni sodir bo'lishiga mehnat jarayoni eng kata ta'sir qilganini avval ham aytgan edik. Bu fikrni davom ettirgan holda neandertallardan avval yashagan eng qadimgi odamlarni hayot faoliyatini

unutmaslik kerak. Chunki neandertallar o'z-o'zidan bu ko'rinish va yutuqlarga erishib qolmaganlar. Buning zamirida neandertallardan oldinroq yashagan "Olduvay" odamlarini hayoti va turmush tarzi yotibti. Neandertallar olduvay turkumiga kiruvchi odamlar yutug'ini o'zlashtirishlari natijasida shu holga kelganlar. Bundan tashqari neandertallar yashagan iqlim sharoiti ham nisbatan iliq edi. Ayni neandertallar davrida "Muzlik davri" poyoniga yeta boshlagan edi. Buning natijasida neandertallar faqat g'orlarda emas tashqari hududlarga ham tarqalganlar. Yuqoridagi barcha holatlar antropogenez jarayoni vujudga kelishi uchun shart-sharoitni yuzaga keltirgan.

Antropogenez jarayonini sodir bo'lishi uchun birinchi navbatda inson miyasi o'zgarishi kerak edi. Odamlarning miya hajmi ham o'zgarib bordi. Eng qadimgi odamlarda bulardan **Zinjantroplar** miya hajmi: **550-600 sm<sup>3</sup>**, **Pitekantroplar** miya hajmi: **900 sm<sup>3</sup>**, **Sinantroplar** **1200sm<sup>3</sup>**, **Neandertal esa 1200-1600 sm<sup>3</sup>**edi deb taxmin qilinadi. Ko'rinib turibdiki insonlarda antropogenez jarayoni rivojlana borgani sari odamlar miya hajmi ham kattalashib 6ata6g. Bundan inson miyasi qanchalik katta bo'lsa, shuncha aqlli bo'ladi degan fikrga kelmaslik kerak. Chunki bugungi zamonaviy texnologiyalar orqali chuqur ilmiy o'rganishlar natijasida inson miya faoliyati kuchli yoki kuchsiz rivojlanishi miya hajmiga bog'liq emas degan fikrni ilgari surmoqdalar.

Sobiq SSSRda ham arxeologiya va antropologiya sohasida qo'lga kiritilgan materiallar shuni ko'rsatadiki neantroplar qadimgi dunyoning katta hududlariga tarqalgan. "Aql-idrokli odamlar" deb atalmish inson ajdodi o'zining tashqi qiyofasi, fikrlash qobiyati, yashash tarzi, moddiy madanyati va mafkurasi bilan qadimgi neandertallardan tubdan farq qilar edi. Bu farq avvalo ularning bosh tuzulishida ko'zga tashlanadi. Mazkur tipdagi odam miya qutisining hajmi **1100-1560 sm<sup>3</sup>**ga teng bo'lib, peshonasi keng, bosh suyagining yuqori qismi ancha keng bo'lgan. Ularda miyaning eng 6ata6g66iveuchastkalari, ya'niboshning tepa qismi ikki chekka, ayniqsa, peshona ancha katta bo'lgan. Neantrop odamlarining yuz qismi neandertallarga o'xshab oldinga chiqib ketmagan. Ularda qosh-qovoq ustki

qabartma suyagi yo'q bo'lib, pastki jag'ida biznikidek do'mboq jag'I bo'lgan. Neantrolarning yuz tuzulishi neandertallardan chiroyliroq bo'lgan.

Bu davr kishilarining qaddi-qomati hozirgi zamon odaminikidek bo'lib, gavdasini to'ppa-to'g'ri tutib yurganlar. Ularning qo'l-oyoqlari tana tuzulishi bir-biriga mutanosib bo'lib tez chopa olgan va mo'ljalni to'g'ri ola olgan deb taxmin qilinadi. Agar neantrop bilan hozirgi odam suyak tuzulishini taqqolansa ularning jismoniy jihatdan bir-biriga o'xshashligini ko'rish mumkin. Shunday qilib, qadimgi poleolitning boshlariga kelib neandertallardan hozirgi zamon jismoniy tipidagi odam paydo bo'ldi va shu bilan antropogenes jarayoni nihoyasiga yetdi, odam o'z biologic rivojlanishi yakunlandi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, neandertallar zamonasiga har xil toshdan qurol ishlash texnikasi, silliqlash natijasida tosh yadrosi ham to'g'ri shaklga kirib disks o'xshash shaklga aylanib qoldi. Ulardan sindirib olingan parchalar yupqalashib, uchburchak ko'rinishga aylanib bordi. U davrning eng muhim qurollaridan biri sixcha va qirg'ichdir. Sixchanning bir uchi o'tkirlangan bo'lib uchburchakka o'xshab ketardi. U go'sht, teri va yog'ochni kesish bo'laklarga ajratish uchun ishlatilgan. Odamlar uni yog'och kesish va (garvon, kaltak) uchiga bog'lab, nayza sifatida ishlatgan bo'lsalar kerak degan taxminlar bor. Toshdan qirg'ich yasab, uning ikki tomonidan o'tkirlab qiruvchi va kesuvchi qurol sifatida foydalanilgan. Neandertallardagi eng muhim kashfiyotlardan yana biri qo'l cho'qmori bo'lib, ulardan otish va kattaroq suyaklarni sindirish va boshqa maqsadlarda foydalanilgan.

Neandertallar odamlari toshdan tashqari suyak va yog'ochdan ham oddiy qurollar yasaganlar. Tabiiyki yog'och qurollar natijasida bizgacha yetib kelmagan. Chunki yog'och tosh va suyakka nisbatan juda tez chirydi. Ular yog'ochdan garvonlar, so'yil, nayza asoslari va ayrilar yasaganlar va ulardan ovlarda foydalanganlar. Ular Afrika, Osiyo va Yevropada ancha keng tarqalib g'orlarda, ungurlar ostida va boshqa joylarda istiqomat qilganlar. Neandertallar teri yungdan kiyim tika olganlar. Eng qadimgi kishilar kabi neandertallar ham ovchilik

va termachilik bilan shug'ullanganlar. Lekin ovda ilgari davrlardan ancha yuqori bosqichga ko'tarilgan edi.

Ularning asosiy mashg'uloti ovchilik bo'lib, mamont, bison, ot, ayiq, zebra, bug'u kabi yirik hayvonlarni ko'proq ovlaganlar. Chunki bu hayvonlar odamlarga ko'proq go'sht, teri va qurol yasash uchun suyak bergan. Yirik terisi qalin hayvonlarni ovlash juda mashaqqatli bo'lib, albatta, bir kishining o'zi amalga oshira olmagani aniq. Bu ovlar ba'zan ovchining o'limi bilan yakunlanishi ham mumkin edi. Chunki hujum qilingan hayvon o'zini himoya qilish uchun ovchiga tashlangani aniq. Bu hujumdan ovchi har doim ham qutulib qolmaganini tushunish qiyin emas.

Osiyo va Afrikada yashagan neandertallar ayiq, qoplon, tog' echkisi, arxar va boshqa hayvonlarni ovlaganlar. Ularning go'shtini ovqat sifatida, terisini esa kiyim sifatida foydalanganlar. Mehnat va ov qurollarining mukammallashuvi oqibatida ovchilik xo'jaligi va termachilik ham rivojlana bordi. Bu hol jamiyatda chuqur o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi. Tirikchilik hayot-momot uchun bo'lgan kurash xo'jalikni uzluksiz ta'minlay oladigan doimiy va birlashgan ishlab chiqarish uyushmasini zarur ekanligini taqazo etdi va uni vujudga keltirdi. Bunday birlashgan uyushmani ibtidoiy kishilarning tasodifiy yig'indisi vujudga keltira olmas edi. Bu birlashma negizida tabiiy qon-qarindoshlik yotar, bu eng dastlabki urug' yoki urug'chilik jamosi edi. Ibtidoiy to'da darida ham odamlar, gala-gala, guruh-guruh bo'lib yashaganlar. Lekin, u guruhlarning soni 20-30 kishidan oshmas, ular ancha beqaror va mustahkam emas edi.

Urug'chilik tuzumi davriga kelib esa har bir urug'dagi kishilar uyushmasi 4-5 barobar oshib, urug' ichidagi odamlar o'zaro mustahkam birlikka ega bo'lganlar. Urug' va urug'chilik tuzumining kelib chiqishi urug'chilikning eng muhim va eng qiyin masalalaridan bir edi. Urug' jamoasi ibtidoiy to'daga nisbatan. Ancha 8ata8g88ive ijtimoiy tashkilot hisoblanardi. Ibtidoiy to'daning urug' jamoasiga aylanish jarayoni uzoq,



tarixiy davrni bosib o'tadi. Urug' bir-biriga qon-qarindosh ancha mustahkam birlikka ega bo'lgan kishilar majmuasidan iborat. Hayot taqazosi bilan vujudga kelgan urug'lar keyinchalik qabilani tashkil etgan. Dastlabki qabilalar ikki va undan ortiq urug'dan tashkil topishi mumkin edi. Urug'chilik jamiyatining bu dastlabki tuzilishini dual tashkilot deb atash rasm bo'lgan. Bu dual tashkilot turli mamlakatlardagi ko'pgina qabilalarda so'ngi vaqtlargacha saqlanib murakkab tarzda ko'zga tashlanadi. Ilk qabila tuzilishining bu ikki shakli fratriy-birodarlik sistemasi deb ataladi. Shimoliy Amerikadagi tubjoylik seneka irokezlar qabilasi fratriya tashkilotining klassik namunasi hisoblanadi. Seneka-irokezlar qabilasi to'rt urug'dan iborat bo'lgan ikki fratriyaga bo'lingan. Mazkur fratriya va urug'lar alohida nomlar bilan atalgan. Rivoyatlarga ko'ra ularda ayiq va kiyikdan iborat ikkita boshlang'ich urug' bo'lgan. Bo'ri, Qunduz, Toshbaqa (Ayiq fratriyasi). Loyxo'ra, Ko'kton, Lochin (kiyiki fratriyasi) kabi urug'lar ularning bo'linishi natijasida shakllangan. Bunday misollarni Yer yuzining boshqa xalqlarida ham kuzatish mumkin.

Urug'chilik tuzumining bunday dual va tashkiloti shaklida paydo bo'lishi erkak va ayollar orasidagi munosabat nikoh rivojlanishining yangi bosqichi bilan chambarchas bog'liqdir. Kishilikning pada davrlarda nikoh munosabatlari o'zining betartibliigi va umumiyliigi bilan xarakterlidir. Nikoh va oila munosabatlarining bu shakli promiskuitet deb ataladi. Urug'chilik tuzumi davriga kelib esa nikoh va oila munosabatlari o'zgarib bordi. Promiskuitetlarda dastlabki cheklanish sodir bo'ldi, bu ham bo'lsa katta avlod bilan kichik avlod o'rtasidagi nikoh munosabatlarini bekor qilinishidir. Mazkur davrdagi dual tashkiloting eng muhim xususiyati shundan iborat ediki, bu bir «pallaga» mansub odamlarning o'zaro nikohlana olmasligi edi. Endi er va xotin qabilaning turli «palla»sidan bo'lishi kerak edi. Birmuncha rivoj topgan fratrial fromdagi dual tashkilotning nikoh tartibi bir fratriyadagi va undagi odamlarning o'zaro nikohlanishi mumkin emas. Yigit boshqa fratriyaga mansub bo'lgan qiz yoki

ayol nikohlana olishi mumkin edi. Natijada bir fratriya boshqa fratriyaga nisbatan «ona fratriyasi» ona urug'i boshqasi esa ota fratriyasi ota urug'i vujudga kelar edi. Shu tariqa ekzogamiya tartibi vujudga kelgan. Shunday qilib, doimo qabilaning ikki pallasi, fratriyalar va fratriyadagi ikki urug' o'rtasida tuziladigan nikoh tartibining xususiyati bu tartibni xususiyatni dual ekzogamik deb atashga asos bo'ldi. Ikkinchidan esa doimo bir urug' bir fratriya ichida shubhasiz ekzogamiya shakllanayotgan paytda nikoh tartibi bir yigit va bir qizning qovushishidan iborat bo'lmagan ekzogamiyali nikohga muvofiq butun bir urug'ning hamma erkaklari boshqa urug' yoki pallaning ayollariga er bo'lishi huquqiga ega bo'lgan. Nikohning bu tarixiy shakli guruhli nikoh deb atalgan.

Guruhli nikohning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bundan tug'ilgan bolaning otasi aniq bo'lmay, faqatgina onasi ma'lum bo'lgan xolos. Bunday sharoitda butun dual ota urug'lar, pallalar va fratriya ayollar atrofida to'planadi. Demak har bir shunday guruh ayollar avlodidan tashkil topadi va qon-qarindoshlik onalar avlodidan hisoblanadi. Shu tariqa urug' ona avlodi sifatida vujudga kelib, urug'chilik tuzumi rivojlanishi matriarxat deb ataladigan davr boshlandi. Urug'chilik tuzumining bu dastlabki bosqichidayoq erkak va ayollar o'rtasida mehnat taqsimotining xarakteri va jamiyat rivojlanishining bu bosqichida ayollarning o'ynagan xo'jalik roli urug'chilik tuzumining ota avlodidan emas balki ona avlodilarida boshlanishining asosiy sabablaridan biri deb hisoblanadi.

Lekin, reaksion burjua fani ibtidoiy davrda kishilikning rivojlanishi ikki yo'ldan borib, faqat dehqonchilik bilan shug'ullangan bir hil qabila va xalqlar matriarxat bosqichini bosib o'tib, qoloq bo'lib qolganlar, chorvachilik bilan shug'ullangan boshqa qabilalar («oriylar») matriarxatni bilmay patriarxat bosqichini bosib o'tib, davlat va hokimiyat yaratganlar deb hisob qiladilar. Burjua olimlarining oriy bo'lmagan matriarxat nazariyasi ibtidoiy qabilalar dastlab dehqon va chorvador kishilarga

bo'lingan edi, degan fikrlar arxeologiya, etnografiya va boshqa fanlar qo'lga kiritgan dalillarga ziddir.

Lekin insoniyatning barchasi o'z boshidan matriarxat poleolitdan neolit oxirigacha bo'lgan uzoqlikni qatorasiga ikki marta ishlatilgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Lekin kishilikning matriarxat bosqichi Yer sharining hamma yerida bir vaqtning o'zida nihoyasiga etgan emas. Uning rivojlanish darajasi ham turlicha bo'lgan. Bu shubhasiz ishlab chiqarish kuchlarining qay darajada rivojlanib 11ata11g11 oqibatida matriarxatdan patriarxatga o'tish sodir bo'ldiki, endilikda erkaklar ishlab chiqarishda asosiy rol o'ynay boshladilar. Bu o'tish avvalo xo'jalikning yuksalishida motiga asosdagi dehqonchilikdan omoch asosidagi dehqonchilikka o'tishda uy hayvonlarini urchitib ko'paytirib boqishdan chorvachilikka o'tishda namoyon bo'ldi. Natijada erkaklar xo'jalikda yetakchi o'ringa chiqib oldilar, ayollar esa uy xo'jaligi ishlari bilan shug'ullanib ikkinchi o'ringa tushib qoldilar. Lekin Yer yuzining turli yerlarida ona urug'i va ota urug'i tartibda hayot kechirayotgan etnik guruhlar, qabilalar va xalqlar hamon mavjud. Ammo ota urug'i tarkibidagi qabila elat va xalqlar asosiy ko'pchilikni tashkil etadi.

Mazkur ijtimoiy tashkilot qon-qarindoshdan iborat xo'jalik tashkiloti bo'lib, unda birgalikda ishlab chiqarish mavjuddir. Ishlab chiqarish vositalari va iste'mol maxsulotlari va urug' a'zolari uchun umumiy bo'lgan. Urug' va urug'chilik tuzumi to'daga nisbatan olg'a tashlangan 11ta qadam bo'lib, yuqori poleolitda aql idrokli kishilar kromanyonlik-garamandliklarda hozirgi jismoniy tipdagi kishilar vujudga kelgan vaqtda paydo bo'lgan va asta-sekin rivojlana 11ata11g. Urug' va urug'chilik ibtidoiy tashkilotning bundan 11ata11g rivojlanishida juda 11ata ta'sir etganligi shak-shubhasizdir.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda antropogenez jarayoni inson paydo bo'lganidan toki so'ngi paleolit davri ya'ni miloddan avvalgi 40-12 mingyillik oxirigacha davom etdi. Bu ulkan davrda inson to'liq jismoniy jihatdan shakllandi. Aqliy qobilyati esa yuksalishi hozirgi zamongacha davom etmoqda. Insonlarda antropogenez jarayonini harakatga keltiruvchi muhim omil bu insonlarning mehnat faoliyati edi. Eng qadimgi insonlar mehnat jarayoni ularning tana tuzulishiga va aqliy qobilyatini rivojlanishiga eng katta ta'sir qilgan omillardan biri edi. Insonlar oziq-ovqat qidirish jarayonida tabiatning turli hodisalariga duch kelganlar. Bulardan Quyosh chiqishi va botishi, yomg'ir yog'ishi, momaqaldiroq fasllar almashinishi va boshqa hodisalar inson e'tiborini tortmasligi mumkin emas edi. Mana shu jarayonlar eng qadimgi odamlarda fikrlash qobiliyatini sekin-asta shakllanishiga xizmat qilgan. Insonlar tana tuzulishiga ham mehnat faoliyati katta ta'sir ko'rsatgan. Odamlar ov jarayonida turli harakatlar qilganlar. Ov qilinayotgan hayvon harakalariga taqlit qilganlar. Buni biz so'ngi paleolit davriga oid qoyatosh rasmlaridan ham ko'rishimiz mumkin. Antropogenez jarayoni insonlarda tabiiy hodisalarga e'tiborsiz bo'lmaganliklari natijasida yuzaga kelgan deb o'ylayman. Chunki bugungi kunda ham qaysi inson ko'p narsaga qiziqsa va uni tushunishga harakat qilsa unda boshqalarga nisbatan aqliy va jismoniy qobilyati yuqori bo'lishi hech kimga sir emas. Antropogenez mana shunday jarayonlar natijasida yuzaga keldi. Bugungi kun olimlari insonlarda antropogenez jarayoni nihoyasiga yetgan degan fikr bildirmoqdalar. Menimcha esa antropogenez jarayoni sodir bo'lgan vaqt o'tganidan so'ng ma'lum bo'ladi. Chunki kromanyon odami yashagan davrdan bugungi kungacha 14 ming yil o'tdi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alikseyev V. Ibtidoiy jamiyat tarixi . –T.,1991.  
-380 b.
2. Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi. –T., 1993. -134 b.
3. Pidayev Sh. Sirli kushonlar saltanati. –T.: Sharq, 1996.  
-185 b.
4. Xolmuradov B. Ibtidoiy jamiyat tarixi(ma'ruzalar matni)  
-Namangan:2008, -108 b.
5. [www.history.ru](http://www.history.ru)
6. [www.natura.com](http://www.natura.com)
7. [www.archaology.ru](http://www.archaology.ru)
8. [www.archaology.com](http://www.archaology.com)